

**XALQARO INVESTITSIYA HUQUQI, TARIXI, HOZIRGI AMALIYOTI VA
KELAJAK ISTIQBOLLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7833035>

Saynazarova Muxtasar Ravshanbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq 3-bosqich talabasi

muxtasarsaynazarova@gmail.com

Annotatsiya: Xalqaro investitsiya shartnomasi davlatlar o'rtasidagi shartnomaga turi bo'lib, u odatda bunday investitsiyalarni himoya qilish, rag'batlantirish va erkinlashtirish maqsadida transchegaraviy investitsiyalar bilan bog'liq masalalarni hal qiladi. Xorijiy investitsiyalar bo'yicha zamonaviy shartnomaga qoidalarining ildizlarini 1778 yilda Qo'shma Shtatlar va Fransiya o'zlarining birinchi tijorat shartnomasini tuzishganlarida ko'rishimiz mumkin. Xalqaro investitsiya shartnomasi yillar o'tkani sayin jadallik rivojlanib barcha davlatlarga kirib bordi. Rivojlanishida o'ziga yarasha murakkabliklar vujudga kelib, nizolar ham kelib chiqdi. Aslini olganda shu nizolar ham murakkabliklar ham xalqaro investitsiya shartnomasini kelajakdagi istiqbolga erishishida katta yordam bera oladi. Chunki nizolarni bartaraf etish, murakkabliklarga yechim topish uchun yangidan qonunlar ishlab chiqiladi izlanishlar olib boriladi va bu kelajakdagi istiqboli uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**INTERNATIONAL INVESTMENT LAW, ITS HISTORY, CERTAIN PRACTICAL
EXPERIENCES AND FUTURE PROSPECTS**

Saynazarova Muxtasar Ravshanbek's daughter

Tashkent State Law University

3rd level student of private law

Annotation: An international investment treaty is a type of agreement between countries that usually deals with issues related to cross-border investments in order to protect, encourage and liberalize such investments. The origins of modern foreign investment treaty rules can be traced back to 1778 when the United States and France signed their first commercial treaty. Over the years, the international investment agreement has rapidly developed and spreaded into all countries. In its development, there were complications and conflicts arose. As a matter of fact, these disputes and complexities can greatly help the future prospects of an international investment agreement. Because, in order to resolve disputes and find solutions to complexities, new laws will be developed, research will be conducted, and this will be significant for the future perspective.

Kirish : Hozirgi kunda xalqaro huquq sohasi eng rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Xalqaro investitsiya huquqi ham shular jumlasiga kiradi. Xalqaro investitsiya huquqi o'zi nima? Uning kelib chiqish tarixi qanday? Hozirgi kunda davlatlarda xalqaro investitsiya huquqiga doir qanday amaliyotlar amalga oshirilmoqda? Kelajakda xalqaro investitsiya huquqining istiqbollari qanday bo'lishi kutilmoqda ? Ushbu maqolada shu kabi savollar qonun hujjatlariga asosan javob berilgan.

Muhokama va Natija

Xalqaro investitsiya shartnomasini davlatlar o'rtasidagi shartnoma turi deb olishimiz mumkin. Davlatlar asosan bu shartnomani xorijiy investitsiyalarni himoya qilish va bilvosita rag'batlantirish uchun, shuningdek, bunday investitsiyalarni erkinlashtirish maqsadida tuzadilar. Bundan tashqari ushbu shartnoma transchegaraviy investitsiyalar bilan bog'liq masalalarni hal qiladi. Xalqaro investitsiya shartnomalari shartnoma tuzuvchi tomonlarning kompaniyalari va jismoniy shaxslariga shartnoma ishtirokchisi bo'lgan boshqa mamlakatlarda sarmoya kiritish yoki biznes ochishda xalqaro huquqqa muvofiq yuqori darajadagi xavfsizlik va ishonchni taklif qilishi katta ahamyatga ega. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan investitsiya xavfini kamaytirish kompaniyalar va jismoniy shaxslarni xalqaro investitsiya shartnomalarini tuzgan mamlakatga sarmoya kiritishga undash uchun mo'ljallangan deyishimiz mumkin. Xorijiy investorlarga mezbon davlat bilan kelishmovchiliklarni faqat qabul qiluvchi davlatning ichki sudlari orqali emas, balki xalqaro arbitraj orqali hal qilishiga ruxsat berish bu borada muhim jihatdir. Bundan ham xalqaro investorlarga yaratilayotgan qulayliklarni ko'rshimiz mumkin.

O'rganishimizcha ko'pgina xalqaro investitsiya shartnomalari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va portfel investitsiyalarini qamrab oladi, ammo ba'zilari ikkinchisini istisno qiladi. Portfel investitsiya o'zi nima degan savol tug'ilishi tabiiy. Portfel investitsiya moliyaviy investitsiya deb ham ataladi. Moliyaviy investitsiya - aksiya, obligatsiya va qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qo'yiladigan investitsiya hisoblanadi. Xalqaro investitsiya shartnomasini tuzgan davlatlar o'z hududlarida xorijiy investitsiyalarga nisbatan muayyan standartlarga rioya qilish majburiyatini oladilar. Xalqaro investitsiya shartnomalari, agar ushbu majburiyatlar bajarilmasa, nizolarni hal qilish tartib-qoidalarini belgilaydi. Ushbu shartnomalarning eng keng tarqalgan turlari sifatida ikki tomonlama investitsion shartnomalarni olishimiz mumkin.(BITs) Bundan tashqari imtiyozli savdo va investitsiya shartnomalari ham rivojlanib keng tarqalib bormoqda(PTIA). Xalqaro soliqqa oid bitimlar va ikki tomonlama soliqqa oid shartnomalar (DTT) ham xalqaro investitsiya shartnomasi hisoblanadi, chunki soliq solish odatda xorijiy investitsiyalar uchun muhim ta'sir ko'rsatadi. BIT va PTIAda mavjud bo'lgan odatiy qoidalar chet el investitsiyalarini himoya qilish va davolash standartlari to'g'risidagi bandlar hisoblanib, odatda adolatli

muomala, to'liq himoya va xavfsizlik, milliy rejim va eng qulay davlat rejimi kabi masalalarini hal qiladi.⁷⁸

Xalqaro investitsiya shartnomasi haqida yetarlicha bilib oldik, endi uning kelib chiqish tarixiga yuzlanadigan bo'lsak, tarixiy jihatdan xalqaro investitsiya doirasining paydo bo'lishi haqida turlicha qarashlar mavjud bo'lib ba'zi manbalarda uchga yana boshqalarida uni ikkita alohida davrga bo'lishganini uchratishimiz mumkin. Birinchi davr - 1945 yildan 1989 yilgacha - xalqaro huquq xorijiy investorlarga taqdim etishi kerak bo'lган himoya darajasi to'g'risida mamlakatlар o'rtasida kelishmovchiliklar bilan tavsiflanadi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlар xorijiy investorlar har qanday mezbon iqtisodiyotda, rivojlanayotgan va sotsialistik mamlakatlarda minimal muomala standartiga ega bo'lish huquqini qo'lga kiritish kerak, deb ta'kidlagan bo'lsada, mamlakatlар xorijiy sarmoyadorlarga milliy firmalardan farqli munosabatda bo'lishga hojat yo'q deb da'vo qilishadi. 1959 yilda birinchi BITlar yakunlanganligi va keyingi o'n yil ichida hozirgi kunda amalda bo'lган BITlarning aksariyat qismining asosini tashkil etuvchi ko'p tarkib ishlab chiqilganligini ma'lumotlar asosida o'rganishimiz mumkin. 1965 yilga kelib, davlatlar va boshqa davatlarning fuqarolari o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risidagi konvensiyani imzolash uchun mamlakatlarga sharoitlar yaratila boshlagan. Buning asosi ICSIDni investor-davlat nizolarini arbitrajda ko'rib chiqishga yordam beruvchi institut sifatida tashkil etish edi.

Ikkinchi davr - 1989 yildan to bugungi kungacha - xorijiy investitsiyalar uchun umumi ijobjiy munosabat va yakunlangan BIT sonining sezilarli darajada ko'payishi bilan tavsiflanadi. Boshqalar qatorida, BITning bunday o'sishi ko'plab rivojlanayotgan iqtisodlarning xorijiy investitsiyalar uchun ochilishi bilan bog'liq bo'lib, ular BITni tuzish ularni xorijiy kompaniyalar uchun yanada jozibador manzilga aylantirishiga umid qilgan. 1990-yillarning o'rtalarida savdo muzokalarining Urugvay raundining bir qismi sifatida sarmoyaviy masalalarni ko'rib chiqqan uchta ko'p tomonlama bitimlar tuzildi va Jahon savdo Tashkiloti (JST) tashkil etildi . Bular xizmatlar savdosi bo'yicha Bosh kelishuv (GATS), Savdo bilan bog'liq investitsiya choralar to'g'risidagi Bitim edi.(TRIMS) va Intelektual mulk huquqlarining savdo bilan bog'liq jihatlari to'g'risidagi bitim (TRIPS). Bundan tashqari, ushbu davr mintaqaviy, mintaqalararo yoki ko'p tomonlama shartnomalar kabi PTIAarning o'sishini ko'rdi , bunga misol NAFTA 1992 yilda va 1998 yilda ASEAN investitsiya hududi bo'yicha ASEAN doiraviy bitimining tuzilishida ko'rsatilgan. Investitsiyalarni liberallashtirishni jadalroq davom ettira boshladi. Biroq xalqaro investitsiya huquqi Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi kabi mintaqaviy kelishuvlar sifatida yangi davrga kirishi mumkin. Va boshqa o'nlab mavjud yoki muzokalar olib borilayotgan an'anaviy ikki tomonlama kelishuvlarni siqib chiqarishga tayyor.⁷⁹

⁷⁸ For a detailed discussion, see Rudolf Dolzer and Christoph Schreuer, *Principles of International Investment Law*, Oxford University Press, 2008, pp. 119-194.

⁷⁹ https://en.wikipedia.org/wiki/International_investment_agreement

Ushbu davr bilan hozirgi kundagi globallashuv davridagi investitsion loyihamalar, shartnomalarning ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Investitsion munosabatlarda xalqaro investitsiya huquqining prinsiplari ham muhim ro'l o'ynaydi. Shuningdek, davrlar o'tishi bilan investitsiya huquqining manbalari ham takomillashib boradi va uning taraqqiy etishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Statistika so'nggi yigirma yil ichida xalqaro investitsiya shartnomalari tez kengayganini ko'rsatadi. Ma'lumotlarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, 2007 yil oxiriga kelib, xalqaro investitsiya shartnomalarining umumiyligi soni allaqachon 5500 dan oshib ketdi. Yillar o'tib borgani sari xalqaro investitsiya sohasi rivojlanib borayotganligini mana shu ko'rsatkichlardan ham ko'rishimiz mumkin. Soha rivojlangani sari xalqaro investitsiya shartnomalari turlari va mazmuni tobora xilma-xil bo'lib borayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Shu sababli deyarli barcha mamlakatlar yangi xalqaro investitsiya shartnomalarni tuzishda ishtirok etar ekan, global xalqaro investitsiya shartnomalar tizimi nihoyatda murakkablashib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Chet ellik mutaxasislarning fikricha xalqaro investitsiya shartnomasi tizimi murakkablashishi to'g'risidagi muammoni yanada kuchaytiruvchi omil ko'plab davlatlar o'rtasida investitsiya kelishuvlarining ikki tomonlama modelidan mintaqaviy modelga mavjud asosni to'liq almashtirmasdan o'tishi natijada esa investitsiya shartnomalarining tobora murakkab va zinch turi paydo bo'ldi deb bilishdi.

Xalqaro investitsiya sohasi rivojlangani sayin, so'nggi yillarda xalqaro investitsiya shartnomalariga asoslangan investitsion nizolarni hal qilish bo'yicha ishlar soni ham ortib boryapti. 2008 yilgi ma'lumotlarga ko'ra yil oxiriga kelib, ma'lum bo'lgan holatlarning umumiyligi soni 317 taga yetgan. Rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida xalqaro investitsiya shartnomalarining ko'payishi ham sohaning global tizimda rivojlanishi deyishimiz mumkin. Yaqin o'tmishga yuzlanadigan bo'lsak, sanoati rivojlanib borayotgan mamlakatlar odatda xorijda investitsiyalarni amalga oshirishda o'z firmalarini himoya qilish uchun xalqaro investitsiya shartnomalari tuzar edi, rivojlanayotgan mamlakatlar esa sanoati rivojlangan mamlakatlardan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini rag'batlantirish maqsadida xalqaro investitsiya shartnomalarini imzolashni maqlul ko'rishgan. Rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida xalqaro investitsiya shartnomalari xulosalarini oshirish tendentsiyasi xalqaro investitsiya munosabatlari asosidagi iqtisodiy o'zgarishlarni aks ettiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar nafaqat yo'naliishlar, balki to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining muhim manbalari bo'lgan davlardir. Davlatlarning rivojlanishi tashqi investorlar sifatida paydo bo'layotgan roli va iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirgan. Unga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini rag'batlantirishning ikki tomonlama manfaatlarini ko'proq ko'zlab kelishgan hamda o'z kompaniyalarining xorijdagi investitsiyalarini himoya qilishga intilishgan.

O'tmishda xalqaro investitsiya qoidalarini ishlab chiqishda ko'proq ko'p tomonlama yondashuvni o'rnatish bo'yicha bir necha tashabbuslar bo'lgan. Bu

urinishlar qatoriga 1948-yildagi Gavana xartiyasi, 1980-yillarda BMTning Transmilliy korporatsiyalar to‘g‘risidagi odob-axloq kodeksi loyihasi va 1990-yillarda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) Investitsiyalar bo‘yicha ko‘p tomonlama bitimi (MAI) kiradi. Ushbu tashabbuslarning hech biri mamlakatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va MAI bo‘lsa, fuqarolik jamiyatining kuchli qarshiliklari tufayli muvaffaqiyatli yakunlanmadni. O’shandan beri JST doirasida ko‘p tomonlama bitim tuzish yo’llidagi jarayonni ilgari surish bo‘yicha keyingi urinishlar amalga oshirildi, ammo muvaffaqiyatga erishmadi. Bunday ko‘p tomonlama bitim amalga oshirish uchun mo‘ljallangan aniq maqsadlar, undan kim qanday manfaat ko‘rishi va bunday ko‘p tomonlama bitim mamlakatlarning kengroq davlat siyosatiga, jumladan, ekologik, ijtimoiy siyosatga qanday ta’sir ko‘rsatishi borasida xavotirlar bildirildi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar o‘zlarining me’yoriy-huquqiy bazalarini ishlab chiqish uchun “siyosat maydoni” ni talab qilishlari mumkin, masalan, iqtisodiy yoki moliyaviy siyosat sohasida va asosiy tashvishlardan biri investitsiyalar bo‘yicha ko‘p tomonlama kelishuv bunday siyosat maydonini qisqartirishi edi.⁸⁰ Demak bundan bilishimiz mumkinki investitsiyalar savdo va moliyadan farq qiladi, chunki JST savdoning yanada yagona global tizimini yaratish maqsadini bajaradi , Xalqaro valyuta jamg’armasi (XVJ) xalqaro moliya tizimiga nisbatan xuddi shunday ro’l o‘ynaydi.

Xalqaro inestitsiya shartnomalarining kelib chiqish tarixini, rivojlanish bosqichlarini, hozirgi paytgacha ushbu sohada bo‘lgan o‘zgarishlarni, yillar oraliq‘idagi statistika ma’lumotlarini qisqacha bo‘lsa ham o‘rganib chiqdik. Xorijiy investitsiyalar bo‘yicha zamonaviy shartnoma qoidalarining ildizlarini 1778 yilda Qo’shma Shtatlar va Fransiya o‘zlarining birinchi tijorat shartnomasini, so’ngra 19-asrda Qo’shma Shtatlar va uning Yevropa ittifoqchilari va keyinchalik yangi Lotin Amerikasi davlatlari o‘rtasidagi shartnomalar bilan tuzganlarida kuzatish mumkin. 1919-yildan keyin Qo’shma Shtatlar Do‘stlik, Tijorat va Navigatsiya (FCN) bo‘yicha bir qator shartnomalar bo‘yicha muzokaralar olib bordi, undan keyin 1945-1966 yillar oraliq‘ida yana bir qator shartnomalar imzolandi. Bu shartnomalar asosan savdo masalalarini ko‘rib chiqdi, lekin ularning ko‘pchiligidagi tovon to‘lashni talab qiluvchi qoidalar ham mavjud edi. 1945 yilgacha tuzilgan shartnomalarda nafaqat kompensatsiya bandlari, balki sherik davlatda biznesning ayrim turlarini tashkil etish huquqiga oid qoidalar ham mavjud bo‘lsa ham, investitsiyalar bo‘yicha qoidalar hech qachon muhim yoki alohida bo‘lmagan. 1945 yildan keyin savdo masalalari alohida shartnomalarda tartibga solindi va FCN shartnomalarida xorijiy investitsiyalar haqida batafsilroq ma’lumot berildi. Zamonaviy BIT davri 1959 yilda Germaniya va Pokiston 1962 yilda kuchga kirgan ikki tomonlama shartnomani qabul qilgandan so‘ng boshlandi. Germaniya o‘z kompaniyalarining qabul qiluvchi davlat qonunlariga muvofiq amalga oshirilgan xorijiy investitsiyalarini himoya qilish uchun ikki tomonlama shartnomalar dasturini amalga

⁸⁰ Jean-Frederic Morin and Gilbert Gagné, "What Can Best Explain the Prevalence of Bilateralism in the Investment Regime", International Journal of Political Economy, 36(1), 2007: 53-74.

oshirishni maqsad qildi. Germaniya o'z dasturini ishga tushirib, birinchi shartnomalarini muvaffaqiyatli muhokama qilganidan ko'p o'tmay, boshqa Evropa davlatlari ham shunga ergashdilar: Shveytsariya 1961 yilda o'zining birinchi bunday shartnomasini tuzdi. Fransiya esa 1972 yilda.⁸¹ Shunday qilib asta- sekin ushbu shartnoma barcha davlatlarga kirib kelib rivojlana boshladi.

Xalqaro investitsiya shartnomasi bo'yicha hozirgacha ko'proq xorijiy davlatlar haqidagi ma'lumotlarni yoritib o'tdik. Va aytishimiz mumkunki, xalqaro investitsiya shartnomasi nafaqat xorijiy davlatlarda qolaversa O'zbekistonda ham eng rivojlanib kelayotgan sohalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida 1996-yildan boshlab respublika hukumati har yili davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobidan kapital qo'yilmalar limitlari, chet el investitsiyalari va hukumat kafolati bilan olingen kreditlar hisobiga aniq qurilishlar dasturi, shuningdek, bevosita chet el investitsiya va kreditlari hisobiga qurilishlar dasturidan iborat bo'lgan Davlat investitsiya dasturini qabul qilganligi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari respublika iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda davlat byudjeti mablag'lari, chet el investitsiyalari, korxonalarning o'z mablag'lari va aholi jamg'armalari qatnashib kelayotganligi, yurtimizda aholining qimmatli qog'ozlarga jamoaviy investitsiyani amalga oshiradigan xususiyashtirish investitsiya fondlari (XIF) va kompaniyalari tarmog'i rivoj topganligini ham keltirib o'tishimiz mumkin. Investitsiya faoliyatining huquqiy bazasini yaratishda ham ko'p say-harakatlar amalga oshirildi. Jumladan, „Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida“ (1995-yil 5-may), „Investitsiya faoliyati to'g'risida“ (1998-yil 12-dekabr), „Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida“ (1998-yil 30-aprel), „Chet el investitsiyalari to'g'risida“ (1998-yil 30-aprel), „Lizing to'g'risida“ (1999-yil 14-aprel)gi qonunlar qabul qilindi. Albatta ushbu qonunlarning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.⁸² Ushbu qonunlar asosida xalqaro investitsiya shartnomalari ham rivojlanib, xalqaro investorlarga ham bir qancha qulaylik yaratib berilmoqda. Xususan, „Investitsiya va investitsiya foaliyati to'g'risida“gi qonunda xalqaro investorlar uchun bir qancha kafolatlar va imkoniyatlar mavjudligi haqidagi normalar ham yoritilib o'tilgan. Bunga misol qilib qonuning 19-moddasiga yuzlanamiz qonunchilikning investor uchun noqulay o'zgarishlariga qarshi kafolatlar. Ushbu moddada O'zbekiston Respublikasining keyingi qonunchilik investitsiya qilish shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, investitsiya qilish sanasida amalda bo'lgan qonunchilik chet el investorlariga nisbatan investitsiya qilish paytidan e'tiboran o'n yil mobaynida qo'llanilishi belgilangan bo'lib, investor o'zining investitsiya qilish shart-sharoitlarini

⁸¹ Principles of International Investment Law (3rd Edition) Ursula Kriebaum, Christoph Schreuer, Rudolf Dolzer Product:Oxford Scholarly Authorities on International Law [OSAIL]

Published in print:06 January 2022

⁸² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Investitsiya>

yaxshilaydigan yangi qonunchilik qoidalarini o‘z xohishiga ko‘ra qo‘llash huquqiga ega ekanligi yoritib o’tilgan.⁸³

Yuqorida keltirib o’tilgan qonunlarning qabul qilinishini yangidan-yangi imkoniyatlarning vujudga kelishini hozirgi kundagi xalqaro investitsiya sohasining jadal rivojlanib borayotgan bosqichilari deyishimiz mumkin. Investitsiya sohasi rivojlanib borayotganligini sababli uni kafolatlash, sug‘urtalash ham ahamiyat kasb etadi. Shu sababli investitsiyani, ayniqsa, chet el investitsiyalarini sug‘urta qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarini sug‘urtalash sohasida 1994-yilda tashkil etilgan „O‘zbekinvest“ eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi faoliyat olib bormoqda.

Xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan investorlarga xalqaro huquq bo‘yicha qo‘sishimcha xavfsizlik va ishonchni ta’minalash orqali xalqaro investitsiya shartnomalar kompaniyalarini xorijga sarmoya kiritishga undashi mumkin. Xalqaro investitsiya shartnomalarini imzolagan mezbon mamlakatlarga to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiya oqimi miqdorini qanchalik oshirishi haqida ilmiy munozaralar mavjud bo‘lsa-da, siyosatchilar ushbu shartnomani transchegaraviy investitsiyalarini rag’batlantirishini va shu bilan iqtisodiy rivojlanishni qo’llab-quvvatlashini taxmin qilishadi. To‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatlarga kapital va texnologiya oqimini osonlashtirishi, bandlikni yaratishga yordam berishi va boshqa ijobiy ta’sir ko’rsatishi mumkin . Shunga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlari bunday oqimlarni rag’batlantirish uchun tegishli asosni yaratishga intilishadi. Ammo bir tomonidan rivojlanishni qo’llab-quvvatlash uchun foyda keltirishi mumkin bo‘lgan bu potentsialga qaramasdan, xalqaro investitsiya shartnomasi tizimining rivojlanishdagi murakkabligi ham qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu tabbiy hol hisoblanadi. Xalqaro investitsiya shartnomasi ham boshqalar shartnomalar singari murakkablikka ega va bugungi kundagi xalqaro investitsiya shartnomasi tarmog’ining murakkabligi mamlakatlarning siyosat uyg'unligini saqlashni qiyinlashtirishi mumkin. Ushbu shartnomada hali ham rivojlanish bosqichida bo‘lganligi sababli uni ham mukammal tarzdagi shartnomada deya olmaymiz. Bitta shartnomada kelishilgan qoidalar boshqa shartnomalarga kiritilgan qoidalarga zid bo‘lishi ham mumkin. Global xalqaro investitsiya shartnomalar tizimida ishtiroy etish imkoniyati past bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ushbu shartnomada tizimining bu murakkabligini boshqarish qiyin bo‘lishi tabiiy. Qo‘sishimcha muammolar mamlakatning milliy va xalqaro investitsiya qonunlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minalash zaruratidan hamda mamlakatning o‘ziga xos rivojlanish maqsadlarini eng yaxshi qo’llab-quvvatlaydigan investitsiya siyosatini ishlab chiqish maqsadidan kelib chiqadi. Agar hukumatlar umumiy rivojlanish maqsadlarini hisobga olgan holda shartnomada tuzsalar ham, bu bitimlarning o‘zlari odatda iqtisodiy rivojlanish muammolarini bevosita ko‘rib chiqmaydi.

⁸³ <https://lex.uz/docs/-4664142#-4664595>

Xalqaro investitsiya shartnomasi bilan bog'liq yuqoridagiga o'xshash muammolar kelib chiqishi sababli investor-davlat nizolarining soni ortib boradi. Albatta ushbu nizolar zarar ko'rgan mamlakatlar uchun ko'proq qimmatga tushadi, ular hakamlik tartib-qoidalari, advokatlik to'lovlarini to'lash va eng muhimi, sud mezbonga qarshi qaror qabul qilgan taqdirda investorga to'lanadigan moliyaviy kompensatsiya uchun katta xarajatlarni o'z zimmalariga olishlariga to'g'ri keladi. Investor-davlat nizolaridan kelib chiqadigan sud amaliyotidagi nomuvofiqliklar muammoni yanada kuchaytiradi. Shu kabi ishlarni ko'rib chiqadigan sudlar tobora ko'proq turlicha talqin va qarorlar qabul qilmoqda. Bu mamlakatlar va investorlar o'rtasida nizo natijasiga nisbatan noaniqlikni oshiradi.

Hech narsa mukkammal bo'limgani kabi xalqaro investitsiya shartnomasini ham o'ziga yarasha noqulayliklari va nizolari mavjud. Lekin shu bilan ushbu soha rivojlanishda to'xtab qolmaydi. Yillar o'tib qonunchiliklarga yangiliklar kiritilgani sayin kamchiliklar ham bartaraf etib boriladi. Xulosa o'rnila shuni aytishimiz mumkinki, xalqaro investitsiya shartnomasi rivojlanishi, kelajakda istiqbolga erishishi va barcha davlatlar tomonidan ularning amaliyotida ushbu shartnoma qo'llanilishi uchun yagona bo'lgan tizim joriy qilinishi kerak. Ushbu shartnomani tuzgan davlatlarda bitta shartnomada kelishilgan qoidalar boshqa huddi shunday shartnomaning normalariga zid bo'lishini oldini olish kerak. Shunda kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olingan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBAALAR:

1. For a detailed discussion, see Rudolf Dolzer and Christoph Schreuer, *Principles of International Investment Law*, Oxford University Press, 2008, pp. 119-194.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/International_investment_agreement
3. Jean-Frederic Morin and Gilbert Gagné, "What Can Best Explain the Prevalence of Bilateralism in the Investment Regime", *International Journal of Political Economy*, 36(1), 2007: 53-74.
4. Principles of International Investment Law (3rd Edition) Ursula Kriebaum, Christoph Schreuer, Rudolf Dolzer
Product:Oxford Scholarly Authorities on International Law [OSAIL]
Published in print:06 January 2022
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Investitsiya>
6. <https://lex.uz/docs/-4664142#-4664595>